**SHARTNOMA 13-son**

(siqilgan tabiiy gaz sotish-olish uchun)

"17" январ 2022-yil                                                            Termiz shahar

**"XUSANBEK" MChJ,** keyingi o'rinlarda **"Sotuvchi"** deb yuritiladi, rahbari A.Murodov bir tomondan Термиз ш. Автомобилчилик кўмаклашиш маркази bundan buyon **"Xaridor"** deb ataluvchi rahbari Ш. Рахмонов, Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomondan quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdik.

## I. SHARTNOMA PREDMETI:

1.1. **"Sotuvchi"** quydagi mahsulotni ish vaqti davomida sotish majburiyatini, **"Xaridor"** sotib olish va sotib olingan mahsulot qiymatini o'z vaqtida to'lash hamda mahsulotni qabul qilish majburiyatini oladi.

| Mahsulot nomi | O'lchov birligi | Jami 1 yilga (chorakga) mahsulot miqdori | Gaz narxi | QQS | | Jami summa aktsiz va QQS bilan (ming so'm) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Stavka 15% | Summasi | |
| Siqilgan tabiiy gaz gazbalonli avtomashinalar uchun (SPG) m.kubda (mitan) | M3 | 937 | 2400 | 337320 | 337320 | 2248800 |

Jami to'lashga QQS bilan Икки миллион икки юз қирқ саккиз минг саккиз юз so'm
(summa so'z bilan)

1.2. **"Sotuvchi"**ning avtomashinasiga gaz quyish shaxobchasi (AGTKSH) quyish yili bilan amalga oshiriladi.

1.3. **"Xaridor"** avtomashinaga gaz quyilgan sanasini va gaz mahsuloti yetkazish sanasini hisoblaydi.

## II. TO'LOVNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI:

2.1. Mazkur shartnoma tuzilgan vaqtdagi umumiy bahosi Икки миллион икки юз қирқ саккиз минг саккиз юз so'mni QQS bilan tashkil etadi.

2.2. **"Xaridor"** tomonidan **"Sotuvchi"**ga shartnoma bahosini to'lash, sotuvchining mazkur shartnomada ko'rsatilgan hisob raqamiga pul mablaglarini ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xom-ashyo matyerial, yoqilg'i enyergyetik resurslar narxi o'zgarganda, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik, normativ hujjatlar, qarorlar va birjadagi narx o'zgarishiga qarab shartnomaning 2.1-bandida kelishilgan summa o'zgaradi.

2.3. Gaz mahsuloti uchun to'lov olingan kundagi narx bilan amalga oshiriladi.

2.4. Gaz mahsuloti **"Xaridor"**ning ishonchnomasi orqali tarqatish varaqasi asosida beriladi.

2.5. Mahsulot ta'minoti uchun to'lov **"Xaridor"** tomonidan **"Sotuvchi"**ning hisob raqamiga 100 % pul mablag'i to'lovi o'tkazilgandan so'ng amalga oshiriladi.

## III. MAHSULOT SIFATI

3.1. **"Sotuvchi"** tomonidan berilayotgan mahsulot sifati O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan GOST 27577-87ga to'g'ri keladi.

## IV. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI:

3.1. **"Xaridor"** gazga qayta jihozlangan avtomashinadan foydalanish davomida texnika xavfsizligi va texnik holati uchun to'liq javobgarlik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

3.2. **"Xaridor"**ning majburiyatlari:

- amaldagi qoidalarga va texnik holatga, tabiiy gazdan foydalanish masalalari bo'yicha yo'riqnomaga to'liq amal qilish;

- gaz ballon uskunasini soz holatda saqlash;

- gaz ballonning gyeomyetrik hajmi va texnik holati to'g'risida yo'l varaqasiga belgi qo'yish;

- belgilangan tartibda avtomashinaga gaz quyish uchun maxsus ruxsatnoma olish;

3.3. **"Sotuvchi"**ning huquq va majburiyatlari:

- avtomashinaning gaz moslamalari to'g'ri espluatatsiya qilinayotganligini nazorat qilish, o'lchov asboblari sozligini tekshirish:

- haydovchining tabiiy gazda ishlashga huquqi borligi haqidagi guvohnomasini tekshirish;

3.4. **"Xaridor"** tomonidan byelgilangan qoidalarga, gaz quyish Ryeglamyentiga va shartnoma shartlariga rioya etilmaslik holati aniqlanganda, **"Sotuvchi"** gaz mahsuloti yetkazib byerishni to'xtatish.

3.5. **"Sotuvchi" va "Xaridor"** gaz hajmining o'rtacha kunlik normasidan kelib chiqqan holda oylik gaz miqdorini bir maromda uzatishi va qabul qilishi shart, **"Xaridor"** gaz mahsuloti istye'moli davomida yuzaga keladigan kelgusi o'zgarishlar haqida yil choragi boshlanishidan 15 kun avval **"Sotuvchi"**ga yozma ravishda xabar qilishi lozim. **"Sotuvchi"** AGTKShdagi uskunalarni navbatdagi joriy tuzatish va ta'mirlash ishlarini olib borishi haqida 15 kun avval **"Xaridor"**ga yozma ravichda ma'lum qiladi.

## V. GAZ MAHSULOTINING HISOBI

4.1. **"Xaridorga"** berilga gaz mahsulotining miqdori tarqatish varaqasi (qaydnomasi) bo'yicha aniqlanadi.

4.2. **"Xaridor"** berilgan siqilgan gaz mahsulotining miqdori davlat standarti tomonidan 13.01.1995-yilda 418-son bilan tasdiqlangan **"AGTKShda yuborilgan gaz hajmini o'lchash va uning hisob-kitobi bo'yicha qo'llanma (RD Uz.5103494)"** asosida "O'zbekneftgaz" milliy kompaniyasi tomonidan 28.11.1995-yilda tasdiqlangan AGTKShda istye'molchiga tarqatilgan gaz hajmini aniqlash jadvaliga muvofiq **"Sotuvchi"**ning o'lchov asboblari orqali aniqlanadi.

## VI. TOMONLARNING HUQUQIY JAVOBGARLIGI:

5.1. **"Sotuvchi"** shartnomada belgilangan hajmdagi gaz mahsulotidan ko'proq miqdorda olgan yoki olmoqchi bo'lgan taqdirda, tomonlar o'rtasida qo'shimcha shartnoma tuziladi.

5.2. **"Sotuvchi"** shartnomada belgilangan hajmdagi gaz mahsuloti bilan **"Xaridor"**ni o'z vaqtida ta'minlay olmasa, quydagi holatlarda javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi va javobgarlikdan ozod etiladi:

- gaz quvurlari, gaz va elektr tarmoqlarida sodir bo'lgan avariya holatlarida;

- o'ziga bog'liq bo'lmagan holatlarda gaz va elektr tarmoqlari ta'mirlash uchun to'xtatilganda;

- yong'in, zilzila, suv toshqinlari va boshqa tabbiy ofatlar yuz berganda;

## VII. FORS MAJOR HOLATLARI:

6.1. Taraflardan biri shartnomaning engib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda muayyan sharoitda olib bo'lmaydigan vaziyatlar (tabiiy ofatlar, noqulay ob-havo sharoiti, hukumat tadbirlari, davlat hokimiyati va davlat boshqaruv organlari qarorlari va boshqalar)da bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi isbotlansa javobgar bo'lmaydi.

6.2. Mazkur shatnoma talablari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmasa, tomonlar O'zbekiston Respublikasining **"Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatinining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risda"**gi qonuni va boshqa amaldagi qonunchiligi talablari bo'yicha javobgar hisoblanadi.

## VIII.KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH:

7.1. Taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan, pora berishni taklif qilmaydi, va`da bermaydi, tovlamachilik qilmaydi, pora sifatida pul to'lamaydi, bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaydi yoki pora, ya`ni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergan shaxsning manfaatlarini

ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yoki mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olmaydi. Taraflar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilishiga kafolat beradi.

7.2. Agar shartnoma bo'yicha bir taraf O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korruptsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

**"1008" ishonch telefoni; Telegram-kanali («@anticorbot»);**

Adliya vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki electron pochta.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BOSHQA SHARTLARI:

8.1. Tomonlar shartnomani imzolagan (byudjet muassasalari uchun G'aznachilik boshqarma (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng) va muhri bilan tasdiqlangan kundan boshlab qonuniy kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrga qadar amal qiladi.

8.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega va bir nusxadan taraflarda saqlanadi.

8.3. Shartnomada kelishilgan masalalar bo'yicha yuzaga kelgan nizolar taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etiladi.

8.4. Nizolar taraflarning muzokaralari yo'li bilan hal etilishining imkoni bo'lmagan hollarda yuzaga kelgan nizolar tegishli tartibda tumanlararo iqtisodiy sudida hal etiladi.

8.5. Mazkur shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar, ular faqat shartnoma tuzilib, taraflarning bunga vakolatli vakillari tomonidan imzolangan (byudjet muassasakari uchun G'aznachilik boshqarma (bo'limi)da belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng) va muhri bilan tasdiqlangandan so'ng haqiqiy hisoblanadi.

8.6. Mazkur shartnomani bir tomonlama taraflar bir-birini yozma ravishda ogohlantirgan holda bekor qilishga **"Xaridor"** tomonidan to'lovni amalga oshirish tartibiga rioya etilmaganda yoki **"Sotuvchi"** tomonidan gaz mahsulotini yetkazib berish tartiblari buzilganda asos bo'ladi.

## IX. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI :

| **"SOTUVCHI"** | **"XARIDOR"** |
|---|---|
| "XUSANBEK" MChJ | Термиз ш. Аҳоли бандлигига |
| Manzil: Qumqo'rg'on tumani | кўмаклашиш маркази |
| Bank rekvizyetlari: | Термиз ш. Шуҳрат кўчаси 14, г |
| AT "O'zsanoatqurilishbank" Termiz shahri | Тел: 7622-320-17 |
| MFO: 01045, STIR: 202457452 | ш/х б: 100022860224017109120141002 |
| OKONX 71211 | ИНН 200473965. МФО: 00356 |
| X/R: 20208000203702523001 | Молия вазирлиги ғазначилиги |
| Tel: 46-52-017 | 2000300100001010 |
| | 22919. МФО: 00014 |
| Rahbar ____________ A.Murodov | ____________ Ш.Рамадов |

*Yurist vizasi:* Men Сур. ш-н бандлик бош бошқармаси ning yuristi, ushbu shartnoma loyihasi amaldagi
(korxona, tashkilot, muassasa nomi)

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining sharnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari talablariga mos kelishligini aniqladim:

"17" январь 2022-yil /________________/ Н.Ошуров

Қумқўрғон туман
Ҳокимлиги
ҳузуридаги Тадбиркорлик
субъектларини давлат
рўйхатидан ўтказиш
инспекцияси

Qumqo'rg'on tuman
Hokimligi
huzuridagi Tadbirkorlik
sub'ektlarini davlat
ro'yxatidan o'tkazish
inspeksiyasi

# Юридик шахснинг давлат рўйхатидан ўтказилганлиги ҳақида

# Г У В О Ҳ Н О М А*

Реестр № **Ю-174 а** **№ 174**

**“ 28 ” март 2011 йил**

Мазкур гувоҳнома ***“ XUSANBEK ”***

***Масъулияти чекланган жамияти***

( ўзбек тилидаги тулик номи )

(юридик шахс деҳкон хўжаликлари,фермер хўжаликлари учун ер участкаси ва унинг майдони кўрсатилади).

**юридик шахсга берилди.**

| | | |
|---|---|---|
| Ташкилий – хукукий шакли: | ТХШТ | **1152** |
| Мулкчилик шакли: | МШТ | **142** |
| Почта манзили: | МХБТ | **1722214** |
| Юридик шахс коди: | КТУТ | **16902165** |
| Тармок коди: | ХХТУТ | **71211** |
| Солик туловчининг идентификация раками: | СТИР | **202457452** |

Кушимча маълумотлар- **Илгари 1997 йил 29 октябрда № 431 сонли карор билан “Хусанбек” КТИЧСХФ руйхатга олинган ва ворис “Хусанбек” МЧЖ хисоблансин.**

М.У.

**Инспекция бошлиги** ________ (имзо) **Ж.Чоршамбиев**